

## KASBI TOPONIMLARINING YASALISHI VA TUZILISHI

Quyanoq Samandar Sayliyevich

QarDU mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Kasbi tumani toponimlarining tarkibiy tuzilishini o'rganish, toponimlarning yasashida topoformantlarning o'rnini aniqlash, ularni tahlil hamda tasnif qilish, shuningdek, tumandagi toponimlarning yasash tuzilishi tilshunoslikka oid manbalarga tayangan holda tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** toponimlar, drionimlar, dromonimlar va eponimlar, apellyativ, leksik tahlil, etimologiya, tarixiy manbalar, madaniy meros, tilshunoslik.

“Toponimlar tarkibida topoasos, topoformant va indikatorlar, odatda, u yoki bu darajada qo'llanadi. Ularsiz joy nomlarining etimologik tadqiqi haqida gapirib bo'lmaydi. Chunki bir toponim faqat topoasosdan iborat bo'lsa, boshqa biri topoasos va topoformant ko'rinishida, uchinchi toponimda esa topoasos va topoformant yoki topoasos, topoformant hamda indikator ko'rinishlarida uchraydi. Mana shularning birikishidan ma'lum bir joy nomining ma'nosi shakllanadi”<sup>124</sup>. Shu o'rinda ba'zi bir terminlarni izohini keltirishni joiz deb bildik. Jumladan, *Topoasos* – toponimning shakllanishi uchun xizmat qiluvchi asos (o'zak)<sup>125</sup> bo'lsa, *Topoformant* – toponimlarning yasashida faol qatnashadigan toponim yasovchi formantlar<sup>126</sup>dir. *Indikator* esa xalq geografik topoterminlaridan biri bo'lib, “toponimik aniqlagich (TA)” deb ham qo'llaniladi. Ular topobektning turiga qarab oykonimik, gidronimik, oronimik, agroonimik, dromonimik aniqlagichlar hisoblanadi<sup>127</sup>.

T.Enazarov doktorlik dissertatsiyasida topoformant toponimning shakllanish jarayonida ishtirok etadigan qo'shimchalar jumlasiga kiritilib, ular asosan qo'shimchalardan iborat bo'lishi qayd etilib, *-chi*, *-lik*, *-li*, *-cha* va boshqalar misol bo'lishi ta'kidlangan. Olim *Alamli*, *Qoracha*, *Irg'ali* toponimlari misolida *alam* va *qora* lug'aviy asoslari *topoasos*, *-li* va *-cha* ma'noli qismlari esa *topoformant* ekanligini qayd etib, ularni farqlab ko'rsatgan. Shuningdek, topoformantlar nafaqat toponim tarkibida keladigan formant, shu bilan birga, toponim yasashda ham xizmat qilishini aytib, ularni ikki guruhga bo'lib o'rganish lozimligini ma'qullaydi:

“1. Asl topoformantlar. Ular toponim tarkibida qo'llanadi, ammo yasovchilik xususiyati yo'q. *Qo'rg'oncha* (*Sam. v. Urgut t.; Qash. v. Yakkabog' t. q.*), *Yurchi*, *Cho'yanchi* (*Sur. v. Denov t. q.*), *Xarrotlar*, *Saqachi* (*Xorazm v. Hazorasp t. q.*) kabilardagi qo'shimchalar shunday topoformantlar sanaladi.

<sup>124</sup> Enazarov T.J. O'zbekiston toponimlari: lug'aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo'llari. Fil.fan. dokt. diss. – Toshkent: 2006. – B. 43.

<sup>125</sup> Enazarov T.J., va boshqalar. O'zbekiston joy nomlarining etimologik lug'ati toponimlar tilsimi (o'quv lug'ati). – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2019. – B. 27.

<sup>126</sup> Enazarov T.J., va boshqalar. O'zbekiston joy nomlarining etimologik lug'ati toponimlar tilsimi (o'quv lug'ati). – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2019. – B. 28.

<sup>127</sup> Enazarov T.J., va boshqalar. O'zbekiston joy nomlarining etimologik lug'ati toponimlar tilsimi (o'quv lug'ati). – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2019. – B. 26.

2. Yasovchi topoformantlar. Bular toponimning shakllanishida yasovchilik xususiyatiga ega bo'ladi: *O'rikzor (Tosh. sh. mavze, bozor), Pistali tog' (Sam. v. Kattaqo'rg'on t.), Tog'liq (Far. v. Oxunboboyev t. q.)* va boshqalar<sup>128</sup>.

Yuqoridagi ma'lumotga tayangan holda maqolamizda Kasbi tumanidagi topoformant asosida yuzaga kelgan joy nomlarini tahlil qilishga harakat qildik. Kasbi tumanidagi ayrim tur toponimlarni T.Enazarovning tasnifiga tayangan holda ikki guruhga ajratib (asl topoforman va yasovchi topoformant) tasniflashga harakat qildik. Shunga ko'ra *asl topoformantlarga* quyidagilar misol qilindi:

Baydoqchi (*Kasbi tumani aholi punkti va ko'cha nomi*)<sup>129</sup>. Uch qismidagi qo'ndoqqa ipak popuk qatilgan bayroqni ko'tarib yuruvchi harbiy kishi. O'tmishda Nukuz – Nekuz ham deyishgan. Mang'itlarning oqmang'it bo'limiga qarashli urug'lar – *nekuz, baydoqchi*. Ikki urug' vakillari bir ovulda yashagan, shuning uchun ham *Nekuz*, ham *Baydoqchi* deyishgan. Turkman tilida: *baydak – bayroq*.<sup>130</sup>

Sohibkor – (*Kasbi tumani mahalla nomi*)<sup>131</sup>. Bu so'z ishbilarmon, ish beruvchi, yollovchi. O'z ishining ustasi; omilkor ma'nolarini ifodalaydi<sup>132</sup>. Sohibkor so'zi onomastik konversiya asosida oykonimga ko'chgan.

Yuksalish – (*Kasbi tumani qishloq, mahalla nomi*)<sup>133</sup>. O'zbek tilining izohli lug'atida: taraqqiy etish, o'sish, yuksak darajaga erishish kabi ma'nolarni ifodalaydi<sup>134</sup>. Bu so'z konversiya usulida toponimga ko'chgan.

*Yasovchi topoformantlarga* esa quyidagi topoobyektlar misol bo'ladi:

Do'st/lik – (*Kasbi tumani shaharcha*)<sup>135</sup>. Tarkibi *do'st +lik*. O'zbek, turkman va boshqa xalqlarning ittifoqdoshi, hamkorlikda va yonma-yon yashash, birgalikda xo'jalik yuritishi, do'stligi sharafiga aholi punkti respublikalardan kelib o'rnashganligi kabi omillar nom paydo bo'lishiga ijtimoiy asos bo'lgan. Nom rasmiy-ma'muriy tarzda qo'yilgan<sup>136</sup>.

Kiyik/chi – (*Kasbi tumani, aholi punkti*)<sup>137</sup>. Kiyikchiovul, Ovulkiyikchi (q.) nomlari ham bor. Qishloq aholining etnik tarkibi asosida nomlangan. Kiyikchilar Amudaryoning quyi oqimida – Xorazmda, ozgina qismi Zarafshon vodiysida yashagan. Janubiy Tojikistondagi kesamir qabilasi, qurama urug'i tarkibida ham kiyikchi urug'i bo'lgan. B.X.Qarmisheva kiyikchilarni mang'itlarga oid deb bilmaydi, balki o'tmishda mustaqil urug' bo'lganligini uqtirishadi. Kiyik – totem, totem asosida urug' nomlangan. - *chi* affiksi ko'plik va tegishlilikni bildirgan<sup>138</sup>.

Reg/iston – (*Kasbi tumani, ko'cha nomi*)<sup>139</sup>. Toj. *reg* – qum, qumloq, - *iston* – o'rin-joy oti yasovchi affiks. Dastlab sayilgoh, qo'rg'on tashqarisidagi maydon, yig'in o'tkaziladigan joy

<sup>128</sup> Enazarov T.J. O'zbekiston toponimlari: lug'aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo'llari. Fil.fan. dokt. diss. – Toshkent: 2006. – B. 44.

<sup>129</sup> <http://geonames.kadastr.uz>.

<sup>130</sup> Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent : O'qituvchi, 1988. – B. 21.

<sup>131</sup> <http://geonames.kadastr.uz>.

<sup>132</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomli. 3-tom – Toshkent, 2022. – B. 564.

<sup>133</sup> <http://geonames.kadastr.uz>.

<sup>134</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomli. 3-tom – Toshkent, 2022. – B. 80.

<sup>135</sup> <http://geonames.kadastr.uz>.

<sup>136</sup> Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent: Muharrir, 2009. – B. 97

<sup>137</sup> <http://geonames.kadastr.uz>.

<sup>138</sup> Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent : O'qituvchi, 1988. – B. 97.

<sup>139</sup> <http://geonames.kadastr.uz>.

*registon* deyilgan. Samarqand, Balx kabi Sharqning yirik shaharlarida *registon* shaharning markaziy maydoni sanalgan. Eron va Afg'onistonda *registon* bozor, savdo-sotiq, ommaviy yig'inlar o'tkaziladigan joy bo'lgan. Afg'on (pushtu) tilining Qobul dialektida sahro, cho'l-biyobon – *registon*. *Registon* so'zi o'tmishda ikki ma'noga ega bo'lgan: qum bilan qoplangan katta maydonli joy – cho'l, sahro; qum sepilgan qisqa maydonli joy. So'nggi ma'no asosida *Registon* nomi yaratilgan<sup>140</sup>.

Demak, toponimlarning vujudga kelishida S.Karimov ta'kidlaganidek, "tilda o'zak+qo'shimcha=morfemaga teng keladigan toponegiz+topoformant =toponegiz jarayoni uzluksiz davom etib turadi. Topoformantlar "qotgan bo'lishi" yoki so'z tarkibida nol holatga kelganligidan qat'i nazar toponimlar etimologiyasi davomida ularni ajratib tahlil etish zaruriyati paydo bo'ladi. Zero, toponimik birlikni grammatik jihatdan o'rganishning ahamiyati ham ana shunda"<sup>141</sup>.

Xullas, Kasbi tumani toponimlarining yasalishida topoformantlarning o'rni katta. Xususan, tumanda topoformant asosida yuzaga kelgan joy nomlari ko'p miqdorni tashkil etadi. Hududdagi nomlarning tuzilishida, asosan, *topoasos+topoformant =toponegiz* qolipidagi joy nomlari alohida ahamiyatga egali bilan ajralib turadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Enazarov T.J. O'zbekiston toponimlari: lug'aviy asoslari va etimologik tadqiqi yo'llari. Fil.fan. dokt. diss. – Toshkent, 2006.
2. Enazarov T.J., va boshqalar. O'zbekiston joy nomlarning etimologik lug'ati toponimlar tilsimi (o'quv lug'ati). – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2019.
3. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1988.
4. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent: Muharrir, 2009. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 tomli. 3-tom – Toshkent, 2022.
5. Karimov S.A. Bo'riyev S.N. O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2006.
6. <http://geonames.kadastr.uz>.

<sup>140</sup> Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. – Toshkent : O'qituvchi nashriyoti, 1988. – B. 97.

<sup>141</sup> Karimov C.A. Bo'riyev C.N. O'zbek toponimikasi taraqqiyot bosqichida. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2006. – B. 54.